
XOTIN-QIZLAR MASALALARI BO'YICHA TARG'IBOT TADBIRI O'TKAZILDI



XOTIN-QIZLAR MASALALARI BO'YICHA TARG'IBOT TADBIRI O'TKAZILDI

Viloyatimiz hududida “Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha dolzarb ikki oy” targ'ibot tadbirlarini o'tkazish belgilab olingan. Oylik doirasida So'x tumanida ham amaliy ishlar tashkillanmoqda.

So'x tumani madaniyat markazida tashkil etilgan targ'ibot tadbirida mahalla fufqarolar yig'inida xotin-qizlar masalalari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mahalla raisi maslahatchilari ishtirok etishdi. Sohaviy xizmatlar hamkorligida tashkil etilgan tadbirda ichki ishlar xodimlari ham qatnashdi.

So'x tumani IIB HPB HQMB katta inspektori, podpolkovnik Sh. D. Shodmonova “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonlikdan himoya qilish” haqidagi Qonun bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berib, ishtirokchilarga gender tenglik mavzo'sida ma'ruza qildi.

Tadbir ishtirokchilari ham mavzuga oid o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon etdilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-24 15:27:18